

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK MUHITNI
YARATISHDA KREATIV YONDASHUV TEXNOLOGIYALARI VA
TASHKILOT PSIXOLOGLARINING O'RNI**

Chariyeva Saodat Mamarasulovna

Surxondaryo viloyati, Jarqurg'on tumani

39 - DMTT psixoligi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lif muassasalarida qulay psixologik muhitni shakllantirishda tarbiyalanuvchilar bilan kreativ ishlashning ahamiyati tahlil qilinadi. Didaktik o'yinlar, ijodiy topshiriqlar va texnologik usullar orqali bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish metodlari yoritilgan. Shuningdek, psixologik muhit va ijodiy jarayonning bog'liqligi haqida mutafakkirlar – Lev Vigotskiy, Jan Piaye va Maria Montessorining qarashlari keltirilgan. Maqolada pedagogik tajribalar va o'yin metodlarining amaliy qo'llanilishi ham bayon qilingan.

Kalit so'zlar: psixologik muhit, kreativ ishlash, didaktik o'yinlar, ijodiy faoliyat, maktabgacha ta'lif, mutafakkirlarning fikrlari, pedagogik metodlar.

So'ngi yillarda mutaxassislar shunday fikrdagi, ota – onalarning psixologga qiladigan murojaati biroz o'zgarib aniqroq harakter kasb etmoqda. Oxirgi paytlarda ota – onalarning amaliy psixolg yordamiga bo'lgan qiziqishi ancha ortdi. Psixologning oldiga maslahat uchun keladigan ota – onalar sonining ortishi buni isbotlab turibdi. Ehtimol, ota – onalar sekin – sekin bola xulq – atrovidagi ko'p narsalarga o'zları sababchi ekanliklarini tushuna boshlaganliklarini his qila boshlaganliklari tufayli ularda psixologik xizmatga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Balki, psixologik xizmatning MT tizimida ommalashishi va ilmiy ommabop adabiyotlarning ko'payib borayotgani ularni o'z farzandiga boshqacharoq qarashga majbur qilayotganidir?

Maktabgacha ta'lif tashkiloti psixologining asosiy ish faoliyati mazmuni:

1. Muassasalarda psixologik iqlimi sog'lomlashtirish.
2. Psixologik bilim berish.
3. Psixodiagnostika ishlari.
4. Ruhiy rivojlantirish va psixokorreksiya ishlari.
5. Psixologik maslahatlar berish.
6. Psixoprofilaktika ishlari bilan shug'ullanish [3].

Xullas, nima bo'lganda ham psixologning yordamiga bo'lgan ongli ehtiyoj asta – sekin bo'lsa ham o'sib bormoqda. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida asosan ko'rinish turiladigan psixologik xatolardan biri tarbiyalanuvchilarning psixologik rivojlanishi, ularning individual va o'ziga xos xususiyatlarini ta'lif – tarbiya ishini tashkil etishda pedagoglarning hisobga olmaganligi natijasida yuzaga kelmoqda.

Buning natijasida:

- tarbiyalanuvchilarning maktabgacha ta'lim tashkiloti muhitiga tez moslasha olmasligi;
- ta'limni qiyin mehnat turi sifatida qabul qilib qolishi;
- muloqotga kirishishda qo'rkoqlik;
- o'zligini —Men||ni namoyon etmasligi yoki kuchayishi;
- turli faoliyatlarga xayri-xohlikning yo'qligi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishdan bosh tortish, injiqlik, qaysarlik va shu kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonni aniqlash va o'z vaqida korreksiya qilish, kelgusida yuzga keladigan juda ko'plab muammolarni oldini olishda ham asosan maktabgacha ta'lim tashkilotining psixologlar faoliyati alohida ahamiyatga ega.

MTT dagi bolalarda keng tarqalgan muammolar yuzasidan MTT psixologiga eng ko'p uchraydigan quyidagi muammolar yuzasidan murojaatlar bo'lishi mumkin:

1. Bola psixik taraqqiyoti darajasining yosh normasiga mos emasligi. Bu yerda muammo taraqqiyot darajasining normadan umumiy pastligida bo'lishi mumkin, ya'ni nutq rivojlanishidagi qiyinchiliklar, xotira, diqqatning yomonligi va boshqalar. 2. Shaxsiy rivojlanishning salbiy ko'rinishlari. Odamlarga kirishib ketishlik, muomala muammolari. Bunda murojaat qilishning sababi ota-onalar va tarbiyachilar bilan, yoki tengdoshlari, ota-onalari bilan muloqotdagi qiyinchiliklar bo'lishi mumkin.

3. Bola xatti-harakatining pala-partishligi, faoliyatning yetarlicha maqsadga yo'nalmaganligi, bolaning o'z hapakatlarini rejalashtirolmasligi, boshqarolmasligi va baholay olmasligi. Ota-onaning bola bilan nizolashishi, (aytganini bajarmaslik)ning asl psixologik sababi faoliyatni ixtiyoriy boshqarishning juda past darajadaligidir.

4. Bolaning MTTiga ko'nikishi va shu kabilar. Ammo amaliyotda ushbu murojatlarga nisbatan ham maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat olib borayotgan ba'zi psixoglarning malakaviy tayyorgarligi yetarli emasligini amaliyotda ko'ramiz. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologlaridan kasbiga doir juda ko'plab kasbiy kompitensiylar, uzlusiz o'z ustida ishslash, malakasini oshirib borish talab etiladi.

Psixologik xizmat mahsuldarligi sharoitlarini uch guruhga ajratish mumkin. Ular: a)bola uchun qulay iqlim yaratish ; b)bolaning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish; v)har bir yosh davrining xususiyatlarini hisobga olish [4]. Shularga asoslangan holda maktabgacha ta'lim tashkilotida psixolog o'z faokliyatini tashkil etishi samarali natija beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi pedagogik Kengashlarda, ota-onalar yig'ilishlarida, —Ochiq eshiklar kuni||da, turli yig'inlar va tadbirlarda psixolog faoliyati sezilarli darajada bo'lishi ham ota-onalar, pedagog va tarbiyachilarning psixologik savodxonligini oshishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar rivojlanishining asosiy sharti

qulay psixologik muhit yaratishdir. Lev Vigotskiy ta'kidlaganidek, bolaning rivojlanishi uchun u o‘zini erkin his qilishi, o‘yin va ijod orqali bilimlarni mustaqil egallashi lozim [1]. Jan Piaye esa bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ijodiy faoliyatning o‘rni beqiyos ekanini aytgan [2]. Ushbu maqolada psixologik muhitni shakllantirishda kreativ metodlar va innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

1. Kreativlikni rivojlantirishda psixologik muhitning o‘rni

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi pedagogik jarayon va muhit bilan uzviy bog‘liq. Psixologik muhit nafaqat emotsiyal qulaylik, balki bola shaxsining mustaqil rivojlanishini ta‘minlaydi. Lev Vigotskiyning fikricha, o‘yin bola rivojlanishining asosiy ko‘zgusi bo‘lib, unda bolaning shaxsiy va ijodiy qobiliyatları namoyon bo‘ladi [1]. Maria Montessori esa muhitni ijodiy va erkin bo‘lishiga urg‘u bergen: “Bola o‘zini erkin his qilganida va mustaqil harakat qilganda, uning rivojlanish jarayoni tezlashadi” [3].

2. Kreativ ishslash metodlari va ularning ahamiyati

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi:

Didaktik o‘yinlar:

Bolaning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, “Savodli so‘z to‘qish” yoki “Topishmoqlar olami” kabi o‘yinlar bola mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Ijodiy topshiriqlar:

Hikoya tuzish, rasm chizish va buyumlar yasash bolalarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Jan Piayening fikricha, ijodiy topshiriqlar bolada mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi [2].

Texnologik usullar:

Multimedia va interaktiv o‘yinlar orqali bolalarda kreativlik va qiziqishni oshirish mumkin.

3. Mutafakkirlarning ijodiy muhit haqida qarashlari

Lev Vigotskiy: Bola rivojlanishi uchun “yaqin rivojlanish zonası”ni yaratish zarur. Bu zona psixologik muhit orqali ta‘minlanadi va bolaga murakkab faoliyatlarini o‘zlashtirish imkonini beradi [1]. Jan Piaye: Bolaning intellektual rivojlanishi ijodiy faoliyat va muhitning ijobiyligi ta’siri orqali amalga oshadi [2]. Maria Montessori: Ta’lim muhitini bolaga moslashtirish orqali uning shaxsiy rivojlanishi va ijodkorligi rag‘batlantiriladi [3]. Xulosa, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ ishslash qobiliyatini rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. O‘yinlar, ijodiy mashg‘ulotlar va ijobiyligi psixologik muhit bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Ushbu jarayonda Lev Vigotskiy, Jan Piaye va Maria Montessorining ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglar bolalarga

qulay muhit yaratish orqali kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarini davom ettirishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vygotskiy L.S. (1982). Psixologik rivojlanish va ta'lim. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Piaget J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.
3. Montessori M. (2004). Bolalar ta'limi falsafasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.